

XOTIRA – ABADIY QADRIYAT: AJDODLAR JASORATI YOSHLAR NIGOHIDA

Muhammadjonova Gulasal Muzaffar qizi*Namangan davlat universiteti Yuridik fakulteti 2-bosqich talabasi**muhammadjonovago07@gmail.com*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada 9-may – Xotira va qadrlash kunining mazmun-mohiyati, ajdodlarimizning Ikkinchi jahon urushida ko'rsatgan qahramonliklari va front ortidagi matonati tahlil qilinadi. Shuningdek, tarixiy xotiraning bugungi yoshlar ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishdagi o'rni, o'tmish saboqlari va tinchlikning qadri kabi masalalar falsafiy-ijtimoiy nuqtayi nazardan yoritilgan. Maqolada ajdodlar jasoratini e'zozlash milliy o'zlikni anglashning muhim omili ekanligi asoslab berilgan.*

Kalit so'zlar: *Xotira, qadrlash, ajdodlar jasorati, Ikkinchi jahon urushi, yoshlar tarbiyasi, tarixiy haqiqat, tinchlik, vatanparvarlik, ma'naviyat.*

Insoniyat tarixi shundan iboratki, o'tmishsiz kelajakni, xotirasiz taraqqiyotni tasavvur etib bo'lmaydi. Dunyo shiddat bilan o'zgarayotgan, turli mafkuraviy ziddiyatlar avj olayotgan bugungi kunda tarixiy xotira masalasi shunchaki o'tmishni eslash emas, balki millatning o'zligini anglashi va ertangi kunini belgilashi uchun hayotiy zaruratga aylandi. O'zbekiston xalqi uchun 9-may – Xotira va qadrlash kuni shonli o'tmish va porloq kelajakni bog'lovchi muqaddas ko'prikdir.

Bugungi tinch va osuda kunlarimiz poydevorida Ikkinchi jahon urushining olovli qozonlarida toblangan, front ortida mislsiz matonat ko'rsatgan ajdodlarimizning buyuk jasorati yotibdi. O'zbek xalqi o'sha suronli yillarda nafaqat jang maydonlarida qahramonlik ko'rsatdi, balki insoniylikning eng oliy namunasi – bag'rikenglik va saxovatni butun dunyoga namoyon etdi. Yuz berishi, bir burda nonini baham ko'rishi millatimiz qonidagi olijanoblikning isbotidir.

Ushbu maqolada ajdodlarimiz ko'atgan jasoratning bugungi yoshlar nigohidagi talqini, tarixiy xotiraning yosh avlod ma'naviy kamolotiga ta'siri hamda “ Inson qadri – ulug' ” g'oyasining jamiyatimizdagi ijtimoiy-falsafiy asoslarini tahlil qilishni maqsad qildik. Zero, o'z qahramonlarini e'zozlagan, ularning xotirasini qalbida saqlagan millat hech qachon mag'lub bo'lmaydi.

Ikkinchi jahon urushi yillari o'zbek xalqining ma'naviy qudrati butun dunyoga namoyon bo'lgan davr sifatida tarixga muhrlandi. Bu davrda xalqimiz nafaqat qurol bilan jang maydonlarida, balki insoniylik va bag'rikenglik bilan front ortida ham yuksak g'alabalarga erishdi. Tarixiy faktlarga ko'ra, urush yillarida O'zbekistonga 1,5 mln dan ortiq inson ko'chirib keltirilgan bo'lib, ularning 250 ming nafari ota-onasidan ayrilgan bolalar edi¹. O'zbek xalqi o'zining og'ir ahvoliga, tanqislik va ocharchilik xavfiga qaramay, bu bolalarni o'z farzandidek qabul qildi. Shaxmatovlar, Bahromovlar va Shomahmudovlar oilalari misolida ko'ringan bu matonat – o'zbek milliy

¹ Shamsutdinov R. Ikkinchi jahon urushi va O'zbekiston xalqi. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 2015. – B. 128.

qadriyatlarining amaldagi isbotidir. Bundan tashqari, O'zbekiston frontning eng muhim "arsenali" ga aylandi. Urush davrida respublikamizga 100 dan ortiq sanoat korxonalari ko'chirib keltirildi va juda qisqa muddatlarda qayta ishga tushirildi. O'zbekistonlik olimlar, konstruktorlar va ishchilar tun-u kun tinim bilmay, front uchun zarur bo'lgan harbiy texnika, o'q-dori va kiyim-kechak yetkazib berdilar². Ushbu jarayonlar yoshlar nigohida faqat mehnat faoliyati emas, balki Vatan ozodligi yo'lidagi muqaddas burch sifatida talqin etilishi lozim.

Ajdodlar jasoratini tahlil qilar ekanmiz, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning: "Xalqimizning urush yillarida ko'rsatgan qahramonligi va matonati biz uchun vatanparvarlikning yuksak namunasi, tinchlik va osoyishtalikni ko'z qorachig'idek asrashga da'vat bo'lib xizmat qiladi"³, - degan fikrlari bugungi yoshlar uchun hayotiy dasturulamaldir. Zero, o'z tarixini va undagi qahramonliklarni teran anglagan yoshlarda milliy g'urur va daxldorlik tuyg'usi shakllanadi.

Bugun biz – uchinchi renessans poydevorini qurayotgan avlod nigohida tarixiy xotira shunchaki o'tmishdagi voqealar silsilasi emas, balki millatning genetik kodi va ma'naviy immunitetidir. Zero, tarixni unutgan millat o'zligini yo'qotadi, o'zligini yo'qotgan millat esa o'zgalar mafkurasining quliga aylanadi. Shu ma'noda, ajdodlarimizning Ikkinchi jahon urushi yillarida ko'rsatgan jasorati biz uchun vatanparvarlikning abstrakt tushunchasi emas, balki real va tirik namunasidir.

Zamonaviy yoshlar bu tarixiy saboqlardan qanday xulosa chiqarishi kerak? Birinchidan, biz urushni faqat o'q ovozi yoki g'alaba quvonchi deb emas, balki insoniylikning eng og'ir sinovi deb qabul qilamiz. O'zbek oilalarining begona yetimlarni o'z bag'riga bosishi – bu bugungi kunda dunyoda yetishmayotgan "Ijtimoiy empatiya" va "global bag'rikenglik" ning eng yuksak cho'qqisidir. Ikkinchidan, ajdodlar jasorati bizni bugungi kunda "axborot xurujlari" va "ma'naviy tahdidlar" ga qarshi kurashishga o'rgatadi. Agar ota-bobolarimiz qurol bilan Vatan sarhadlarini himoya qilgan bo'lsalar, biz bugun ilm-fan va intellektual salohiyat bilan yurtimizning ma'naviy chegaralarini asrashimiz shart.

Ushbu jarayonlarni tahlil qilar ekanmiz, atoqli faylasuf olimlarning: "Tarix – o'tmish bilan kelajak o'rtasidagi uzviy muloqotdir", - degan qarashlari yodimizga tushadi. Biz ushbu muloqotda ajdodlarimizdan nafaqat tinchlikni asrash uchun kerak bo'ladigan sadoqat va sabotni ham meros qilib olamiz. Yoshlar nigohida xotira – bu o'tganlarni shunchaki eslash, yodga olish emas, ularga munosib bo'lish mas'uliyatidir.

Xulosa qilib aytganda, xotira – bu shunchaki o'tmish sahifalarini varaqlash emas, balki millatning ma'naviy uyg'oqligidir. Ajdodlarimizning Ikkinchi jahon urushi yillarida ko'rsatgan mislsiz jasorati va matonati biz – bugungi yoshlar uchun vatanparvarlikning eng yuksak va jonli darsligiga aylanishi lozim. Tarixiy xotira va inson qadrini ulug'lash tamoyillari jamiyatimizda mustahkam qaror topgan ekan, bu bizning har bir yutug'imizda ota-bobolarimizning ruhiga bo'lgan ehtiromimizni ifodalaydi. Bugungi globallashuv davrida ajdodlar qahramonligini o'rganish bizda

² O'zbekiston tarixi (1917-1991-yillar). Ikkinchi kitob. – Toshkent: O'zbekiston, 2019. – B. 210.

³ Mirziyoyev Sh. M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – B. 112.

nafaqat g'urur tuyg'usini, balki tinchlikni ko'z qorachig'idek asrash mas'uliyatini ham shakllantiradi. Biz, yangi avlod vakillari, o'tmish bilan kelajak o'rtasidagi ma'naviy ko'prikn mustahkam saqlashimiz, ajdodlarimizning sadoqat va sabotidan andoza olgan holda, Vatanimiz ravnaqi yo'lida bor bilim va salohiyatimizni safarbar etishimiz lozim. Zero, o'z tarixini e'zozlagan, o'tganlarini qadrlagan xalqning istiqboli hamisha nurlu, mustaqilligi esa abadiydir.

Yuqoridagi fikrlarga yakuniy xulosa sifatida Prezidentimizning ushbu so'zlarini keltirmoqchiman: "Biz uchun qahramon ajdodlarimizning xotirasi muqaddasdir. Ularning hayoti va jasorati bugungi va kelajak avlodlar uchun vatanparvarlik va fidoyilikning bitmas-tuganmas manbai bo'lib xizmat qiladi"⁴.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
3. Shamsutdinov R. Ikkinchi jahon urushi va O'zbekisto xalqi. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 2015.
4. O'zbekiston tarixi (1917-1991-yillar). Ikkinchi kitob. – Toshkent: O'zbekiston, 2019.
5. O'zbekiston Milliy axborot agentligi (www.uza.uz) – Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va xotira tadbirlari haqidagi arxiv materiallari uchun.
6. Ziyonet axborot-ta'lim tarmo'I (www.ziyo.uz) – Mavzuga oid ilmiy maqolalar va electron kitoblar uchun.

⁴ Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – B. 248.